

# "O'zbekimiyosanoat" AJ va investorlarning Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida yalpi majlisi bo'lib o'tdi

// 06.05.2024

<https://uzkimiyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimiyosanoat-aj-va-investorlarning-toshkent-xalqaro-invest>



O'zbekistonda kimyo sanoatining yillik o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun qanday reja va strategiyalar ishlab chiqilmoqda? Sohani xorijiy investorlar uchun yanada jozibadorligini oshirish maqsadida qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak?

Yalpi majlisda ushbu savollarga batafsil javob olish imkoni yaratildi.

Tadbirda Linde (Germaniya) kompaniyasining Yevropa-Sharq mintaqasi bo'yicha prezidenti - Mattias Kranz, Indorama Kokand Fertilizers and Chemical bosh direktori -Rakhul Singh, NexantECA kompaniyasining MDH mintaqasi bo'yicha rahbari, bosh maslahatchi Sergey Radchenko, "O'zbekimiyosanoat" AJ boshqaruvi raisining investitsiyalar va innovatsiyalar bo'yicha o'rinbosari Akbar Kurbanov hamda "Navoiyazot" AJ boshqaruvi raisi Farrux Samadov ishtirokchilarni qiziqtirgan ushbu savollarga batafsil javob berishdi.

Kimyo sanoatining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni, asosiy yutuqlar va ko'rsatkichlar, istiqbolli rejalar va investitsion loyihalarning asosiy parametrlari bo'yicha ma'lumotlar berildi.





"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati